

## **KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA ISHLAYDIGAN ISHCHILARNING XAVFLI VA ZARARLI ISHLAB CHIQARISH OMILLARI VA XUSUSIYATLARI**

***Muxamedova Zuhraxon Kazimovna***

*Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqolada turli sharoitlarda ish joylarda xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari tahlil qilindi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda va uning himoya xususiyatlarini saqlab qolish tamoyiliga asoslanib, metallurgiya ishlab chiqarishida kasbiy xavfni aniqlash kerak.

**Kalit so‘zlar:** metallurgiya, ximoya, maxsus kiyim, omil, sanoat.

### **ОПАСНЫЕ И ВРЕДНЫЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ ФАКТОРЫ И ХАРАКТЕРИСТИКА РАБОТНИКОВ ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМБИНАТА**

**Аннотация:** В статье проанализированы опасные и вредные производственные факторы на рабочих местах с различными условиями. С учетом этих факторов, и исходя из принципа сохранения его защитных свойств следует определить профессиональный риск в металлургическом производстве.

**Ключевые слова:** металлургия, добыча, защита, спецодежда, фактор, промышленность.

### **DANGEROUS AND HARMFUL PRODUCTION FACTORS AND CHARACTERISTICS OF WORKERS WORKING IN A MINING- METALLURGICAL COMBINE**

**Annotation:** The article analyzes dangerous and harmful production factors in workplaces with various conditions. Taking into account these factors and based on the

principle of maintaining its protective properties, it is necessary to determine the occupational risk in metallurgical production.

Key words: metallurgy, special clothing, factor, industry.

O‘zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida real muommolarni muhokama qilishda foydalaniladigan tushuncha va ta’riflar faqat murakkab voqelikni soddalashtiruvchi nazariyalar doirasidagina qat’iy belgilangan ma’noga ega. Inson o‘zining kasbiy faoliyati davomida sanoat muhitida bir qator omillarga duchor bo‘ladi. Ular orasida yetakchi o‘rinlardan birini jismoniy omillar egallaydi: shovqin, tebranish, elektromagnit nurlanish, mikroiqlim va boshqalar. Muayyan sharoitlarda ularning har biri, shuningdek, ularning turli xil kombinatsiyalari inson tanasining moslashish qobiliyatining sezilarli darajada zo‘riqishga va keyinchalik moslashuvning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu omillarning ta’siri ularning jismoniy xususiyatlari va tananing yetakchi tizimlarining funktsional holati, uning stimulga individual sezgirligi bilan belgilanadi. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, Navoiy viloyatidagi ishlab chiqarish ob’yektlarida ish kuni davomida xodimga quyidagi xavfli va zararli omillar ta’sir ko‘rsatadi: nafas yo‘llariga ta’sir qiluvchi zararli moddalarning ta’siri; “Navoiyazot” AJ, “Gidro Metallurgiya Zavodi” Navoiy kon-metallurgiya kombinati sexlarida kislota, ishqorning mavjudligi; Navoiy viloyatidagi ko‘plab sanoat ob’yektlarida tebranishning majjudligi; maydalash sexlarida va Navoiy kon-metallurgiya kombinati, “Qizilqumsement” AJ kompressorlaridan shovqin kelishi; Navoiy kon-metallurgiya kombinati quyish sexida metallni eritishda yuqori harorat ta’siri [1].

Korxonada GOST 17.2.3.02-78 bo‘yicha xavfli va zararli ishlab chiqarish hamda texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish omillari, ularning tavsifi, yuzaga kelish manbalari, ishchilarga ta’sir qilish xususiyatlari va salomatlik uchun xavflilik darajasi va kelgusidagi oqibatlari to‘g‘risida to‘liq va xolisona ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Ish hududiga yoki atrof muhitga zararli moddalarni bug‘, gaz, chang ko‘rinishida ajratishi mumkin bo‘lgan texnologiyalardan foydalanishda ularning kimyoviy va

mikrobiologik tarkibi va GOST 12.1.005-88 “Ish hududining havosi. Umumiy sanitariya-gigienik talablar” bo‘yicha ruxsat etilgan eng ko‘p miqdori ko‘rsatilgan to‘liq ro‘yxati tuzilishi lozim. Ishlab chiqarish omili inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, kasallikka olib keladigan yoki xodimning ish faoliyatini pasaytiradigan bo‘lsa, zararli deb ataladi. Zararli omilning oqibati-sog‘likning keskin yomonlashishiga, o‘tkir kasallikning paydo bo‘lishiga yoki hattoki, odamning o‘limiga olib kelishi mumkin. GOST 12/0.003-74 SSBT bo‘yicha xavfli va zararli ishlab chiqrish omillari: Jismoniy guruhga - ishlaydigan mashinalar, mexanizmlar, uskunalar; ko‘p miqdordagi chang va gazlarning to‘planishi; uskunaning yuqori yoki past harorati va namlik; havo ionizatsiyasi; shovqinning oshishi, tebranishning kuchayishi.[2]

Kimyoviy ishlab chiqarish omillariga ko‘plab zararli bug‘lar, gazlar va aerozollar. Biologik ishlab chiqarish omili mikroorganizmlar va ularning hayotiy faoliyati mahsulotlari ko‘rinishida taqdim etiladi. Psixofiziologik omili jismoniy va neyropsixikka bo‘linadi. Ishdan keyin ishchilar aqliy, hissiy holatiga salbiy ta’sir qiladi.

Har qanday ishlab chiqarish normalar va xavfsizlik qoidalari muvofiq ishlashi kerak. Ishlab chiqarishda odamga shikast yetkazmaslik uchun maxsus kiyim ishlatiladi. Qo‘llar, oyoqlar, ko‘zlar uchun himoya vositalaridan foydalanish kerak [3].

Konda ishchilar xavfsizligini ta’minlashning asosiy muammosi, inson tanasiga ta’sir qiluvchi xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining mavjudligi - ish joyidagi atmosferaning gaz va changlari, yuqori haroratlar, tananing alohida qismlariga, ayniqsa qo‘llarga, oyoqlarga, yuzga, boshga mexanik shikastlanishlar aniqlangan. Shu sababli uzoq muddat ish faoliyatini olib borgan kon ishchisida kasb kasalliklari kuzatiladi.

Xavflilik darajasiga ko‘ra 4 ta sinfga ajratiladi: maqbul: ular ba’zi bir og‘ishlarga ega bo‘lishi mumkin, ammo dam olgandan keyin odam o‘zini tiklaydi; zararli: ishlab chiqarishda har qanday standartlardan chetga chiqish mavjud bo‘lganda; xavfli: inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladi.[4] Mehnatni muhofaza qilish qoidalari: xavfsizlikni kuzatish; xodimlarni o‘qitish; ish joylarini sertifikatlashni amalga oshirish; himoya vositalari to‘g‘risida xabar berish; baxtsiz hodisalarni tekshirish; xodimlarni

sug‘urta qilish kiradi. Mehnat kodeksi xodimlarning xavfsiz muhitda ishlash huquqlarini belgilaydi (jadval 1).

Xavflilik darajasiga ko‘ra sinflar quyidigilarga bo‘linadi

Jadval 1.

Xavf klassi	Mehnat muhiti omillarining xususiyatlari
1-darajali optimal ish sharoitlari	Gigiena talablari
2-darajali mehnat sharoitlari	Belgilangan gigiena me’yorlaridan oshib ketmagan va mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar ishchi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi
1 va 3-sinf (3.1) mehnat sharoitlari	Kichkina funksional o‘zgarishlarga olib keladigan va sog‘liqqa zarar yetkazish xavfini oshiradigan og‘ishlar mavjud
2 va 3-sinf (3.2) mehnat sharoitlari	Ular doimiy funksional o‘zgarishlarga olib keladigan, bu kasbiy kasalliklarning ko‘payishiga dastlabki belgilari yoki yengil shakllarning paydo bo‘lishiga olib keladi
3 va 3-sinf (3.3) mehnat sharoitlari	Yengil va o‘rtacha og‘irlikdagi kasbiy kasalliklarning rivojlanishiga va surunkali (kasbiy o‘sishga olib keladi)
4 va 3-sinf (3.4) mehnat sharoitlari	Xavfli omillari ta’siri ostida kasbiy kasalliklarning og‘ir shakllari paydo bo‘ladi, surunkali patalogiyaning sezilarli darajada o‘sishi va vaqtinchalik kasallanishning yuqori darajasi kuzatiladi.
4-darajali (ekstremal) -xavfli mehnat sharoitlari	Hayot uchun xavf tug‘diradi, og‘ir yoki o‘tkir kasbiy shikastlanish xavfi yuqori bo‘ladi.

Metallurglarning shaxsiy himoya xavfsizligini oshirish uchun ish kiyimlariga qo‘yiladigan talablar va shaxsiy himoya vositalari. Konchilar kiyimiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat: ijtimoiy ko‘rsatkichlar maxsus vazifali buyumlarning talablar extiyojiga mosligi, ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligi, kiyimning bo‘ylar va o‘lchamlar assortimenti bo‘yicha iste’molchi extiyojiga mosligi; gigiyenik moslik ko‘rsatgichlari-sanitariya va gigiyena me’yyorlariga mosligini xarakterlab, kiyim ostida qulay mikroklimatni ta’minlashi kerak; estetik ko‘rsatkichlar- zamonaviy

uslub va modaga mosligi; ekspluatatsiya ko‘ratkichi- elspluatatsiya davrida kiyimning ishonchlilik ko‘rsatkichi detallarning shakl saqlovchanligi, chidamliligi; ergonomik ko‘rsatgichlar buyumning insonga moslashganlik darajasini bildiradi; funksional ko‘rsatgichlar kiyimning asosiy vazifasiga, iste’molchining o‘lchami, yoshi va to‘lalik guruhi xususiyatlariga mosligi kiradi.[5] Maxsus kiyim to‘plamlari ko‘p qavatlik prinsipiga asoslanadi. Ishchilar ob-havo sharoitlariga qarab garderob buyumlarni mustaqil ravishda birlashtirishi mumkin. Metallurgiya korxonalari xodimlari uchun ish kiyimlari imkon qadar qulay bo‘lishi kerak va hech qanday holatda harakatni cheklamasligi kerak. Ishchilar uchun maxsus kiyimlar, kurtka va shimplardan iborat bo‘lib, ular yaxshi joylashtirilgan mastahkamlagichlar, cho‘ntaklar, shuningdek, ishchining qulayligini oshirish uchun materiallaning tanlovini inobatga olish zarur.[6] Bundan tashqari himoya xavfzilik poyabzallari va qo‘llarni yuqori haroratdan saqlovchi qo‘lqoplar, shuningdek boshni, yuzni, ko‘rish va nafas olish organlarini himoya qilish vositalari,bularga: yuz qalqonlari, maskalar, ko‘zaynaklar va respiratorlar kiradi.

#### **Adabiyotlar**

1. Белов С.В., Ильницкая А.В., Козяков А.Ф. и др. Безопасность жизнедеятельности: Учебник для вузов М.: Высшая школа, 2004-606с
2. Еремина Ю.В. Разработка и исследование специальной одежды для защиты от воздействия агрессивной акустической среды. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук. Москва-2016.
3. Методы оценки качества специальной одежды Ливанова Т.Е, Чубарова З.С, Пальянова С.Г.
4. <https://asout.ru/articles/klassifikatsiya-opasnyih-i-vrednyih-proizvodstvennyih-faktorov>
5. <https://buhconsul.ru/uz/vrednye-i-opasnye-proizvodstvennye-faktory-ih-klassifikaciya>
6. [https://online.budstandart.com/ru/catalog/doc-page.html?id\\_doc=48127](https://online.budstandart.com/ru/catalog/doc-page.html?id_doc=48127)